




ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

Til va adabiyot.uz

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературе – Language and literature teaching» (e-mail:tilvaadabiyotuz@gmail.com) <https://oak.uz/pages/4802>

2023-yil. 13-son





ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

Til va adabiyot.uz

M U N D A R I J A

TADQIQOT

Baxtiyor Daniyorov. Rus tilini xorijiy til sifatida jadal o'rgatish metodikasining ilmiy-amaliy asoslari.....	3
Durdona Xudoyberganova. Konsept va u bilan bog'liq terminlar xususida.....	6
Nigora Sharipova. "Hayrat ul-abror" kompozitsion qurilishida basmalaning o'rni.....	8
Maxsuda Saribayeva. Mumtoz asarlarni o'qitishda innovatsion yondashuv (Boburning "Boburnoma" asari misolida).....	10
Dilnoza Ruzmatova, Shaxnoza Begimkulova. Ikki madaniyatga mansublik: afg'on-amerikalik adibaning haqiqati (Maryam Qudrat Asil)	14
Saodat Sultansaidova. Sharq adabiyotida mushtarak va farglovchi xususiyatlar (o'zbek va koreys poeziyasining qiyosi misolida).....	17
Mahina Axrorova. Alisher Navoiyning ijodiy an'analari Abdulla Avloniy va Cho'lpion ijodida shaxs yosh xususiyatiga ko'ra xoslanishi.....	20
Nodira Hamidova. "Mening o'g'rigina bolam" hikoyasida umumxalq tiliga xos badiiy ifoda uslublari.....	22
Dilnoza Fayzullayeva. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarni o'qitish jarayonida smart texnologiyalardan foydalanish.....	25
Ozoda Shukurbayeva. Blum taksonomiyasidan foydalanib badiiy asarlarni tahlil qilish.....	27
Dilnoz Ollaberganova. Malala Yusufzoy va Xolid Husayniy asarlarida gender tenglik tushunchasi.....	30
Ra'no Fayzullayeva. "Xamsa" hayratlari – so'nmas e'tiqod ifodasi.....	32
Barchinoy Baymatova. Umumiyoq ovqatlanish muassasalarini nomlariga doir.....	35
Dildora Mavlanova. Maqollarning muloqot mexanizmi sifatida qo'llanilishi va ularning qiyosiy tahlili.....	38
Intizor Jumaniyazova. "Saddi Iskandariy" dostonini o'rganishda ta'liming innovatsion texnologiyalaridan foydalanish.....	40
Firuza Murodova. "To'maris" va "Shiroq" afsonalarda vatanparvarlik nutqi leksikasi.....	42
Muhiddin Nurullayev. "Mulk" surasi oyatlarining ma'no tarjimalarida qo'llanilgan leksik birliliklar (O'zbek tili misolida).....	44
Ulug'bek Ko'chimov. Qahramon ruhiyatini o'rganishning nazariy assoslari.....	47
Madixabonu Pardayeva. O'zbek milliy hajviyasingning Abdulla Qodiriy ijodiy merosida yaratilishi.....	49
Anvar Temirov. Maktabgacha ta'lif tashkilotini innovatsion yondashuvlar asosida boshqarishda rahbarga qo'yilgan talablar.....	51
Durdona Abdurayimova. Psixolingvistikada shaxs temperamentlari tadqiqining sud jarayonlaridagi ahamiyati.....	53
Aziza Shukurova. Samarqand va Sariosiyo tojik shevalaridagi etnografizm leksemalarning qiyosiy tahlili.....	55
Dilraboxon Rustamova. Termin va uning ensiklopedik lug'atlarda berilishi.....	58
O'tkir Ostonov. "Qutadg'u bilig" asari va undagi ijtimoiy-siyosiy leksik maydon.....	60
Mahliyo Jo'rayeva. Shoir Habibiy va uning devoni haqida.....	62
Nilufar Allaberganova. Reklama matnlarida manipulyatsiya vositalarning ifodasi.....	66
Ulug'berdi Pardayev. Umar Sayfiddinning "Pecheviy, Sehrgar, Forsa" hikoyalarida arxaizmlarning berilishi.....	68
Mirzaraxim Zokirov. Perseptiv qobiliyatlarni rivojlantirishning nazariy uslubiy jihatlari..	71

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Tahrir hay'ati:

Dilshod Kenjayev
Nizomiddin Mahmudov
Yorqinjon Odilov
Jabbor Eshonqulov
Baxtiyor Daniyarov
Abdurahim Nosirov
To'lqin Saydaliyev
Barno Buranova
Zulxumor Mirzayeva
Qozoqboy Yo'ldoshev
Salima Jumayeva
Qayum Baymirov
Manzar Abdulkayrov
Alijon Safarov
Madina Nuriddinova
Latifa Xudayqulova
Barno Kadirova
Nargiza Mirzayeva
Guli Shukurova
To'maris Butunbayeva
Ramziddin Abdusatorov
Okila Turakulova

Axborot hamkorimiz:



Muharrirlar:

Lutfullo JO'RAYEV
Bibimaryam RAHMONOVA
Oydin SHUXRATOVA

Sahifalovchi:

Mahliyo ABDUQODIROVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,(71) 233-03-67.
e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com

Maxliyo To'raqulova. Tazkiranvaslik an'anasi va taraqqiyot tamoyillari.....	73
Dilshod Rajabov, To'xtamurod Rajabov. She'riyatda ko'chimlarning yuzaga kelish usullari, xususiyatlari va badiiyylanish ko'rinishlari.....	75
Marjona Xayrullayeva. Buxoro viloyat Vobkent tumandagi joy nomlari asosida shakllangan toponommlarning paydo bo'lishi.....	77
Ibratbek Qurbanov. Maktabgacha ta'lif tashkilotlari direktorlarining kasbiy kompetentigini shakllantirishning dolzarb muammolari va yechimlari.....	80
Gulshan Musulmonova. "Zarbulmasali Sidqiy" asari qo'lyozmasi haqida.....	83

Berdibek Yusupov. Adabiylar ta'lif jarayonida o'quvchilarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini shakllantirish texnologiyasi.....	85
---	----

Nigora Ruziyeva. Isajon Sulton romanlarida qo'llanilgan metaforaning leksik xususiyatlari.....	8
--	---

Maftuna Nurboyeva. Tilshunoslikda frazeologiya va uning tasnifiga oid tadqiqotlar tahlili	90
---	----

Hasan Gafforov. Gender in modern linguistics	93
--	----

Sitora Xasanova. Exploring linguoculturology: language, culture, and the concept of a cultural concept.....	95
---	----

Damira Suvanova. The investigation of taste adjectives in linguistics.....	97
--	----

Kakhramon Kuralov. Content and language integrated learning (clil) for future specialists in the field of natural sciences	99
--	----

Кодиржон Мўйдинов. Фразеологизмы - одна из лингвистических единиц лексикона судебной речи.....	1
--	---

TAHLIL

Yo'ldosh Rahmatov. So'z ko'rkisi – maqol	103
--	-----

Azamat Atayev. O'zbek tilidagi ayrim arabiy o'zlashmalarning etimologiyasiga doir	105
---	-----

Latofat Tashmuhamedova. O'quv-uslubiy adabiyotlar tahlili	
---	--

To'ra Toshmuhammad Zarif. Hofiz Xorazmiy asarlarining matniy tadqiqi	109
--	-----

Xurshida Ro'ziyeva. Abdulla Oripov asarlarida leksik sinonimlar.....	110
--	-----

Moxichehra Muxammadiyeva. Gulxaniyning "Zarbulmasal" asaridagi qush obrazlari	113
---	-----

Dilruxjon Abdilakimov. Cho'lpon ijodi zamondosh munaqqidlar nigozida.....	115
---	-----

Dilshod Xursanov. Omon Matjon she'riyatida esxatologik motivlar badiiyati	118
---	-----

Nargiza Pazliddinova. Alisher Navoiyning mulamma' san'atiga asoslangan g'azali	12
--	----

Sapura Ne'matova, Akbar Jumanov. Bobur g'azallarida go'zallik talqini.....	123
--	-----

Jahongir Turdiyev. "Lison ut-tayr" asarida me'roj tavsifi.....	1
--	---

Munira Akbarova. G'ayriodatiy birikmalar professor Nizomiddin Mahmudovning ilmiy qarashlarida.....	128
--	-----

Safo Matchonov. Yozuvchining badiiy olami: Mahmud Murodov portretiga chizgilar	13
--	----

METODIK TAVSIYA

B.Xusniddinova. Bo'lajak logoped mutaxassislarning kasbiy madaniyatini rivojlantirish	
---	--

Nigora Umarova. O'zbek tili ta'limalda savol o'quv topshirig'ining ahamiyati	135
--	-----

Madina Alimova. Til o'rgatishda qo'llaniladigan metodlar haqida.....	138
--	-----

Dilnura Avezova. Esse – o'quvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantiruvchi vosita.....	141
---	-----

Oysuluv Musurmonkulova. Adabiylar ta'limalda o'quvchilarning ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirish usullari	
--	--

Vahobjon Nazarov. Multimedia va raqamlı texnologiyalarning chet tili o'qitish jarayoniga tatbiq etishning zaruriyati	
--	--

Shaxnoza Muxtarova. Ona tilini rus tili fani bilan bog'liqlikda o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari	15
---	----

Surayyo Muqumova. Ona tilini o'qitishda ta'lim tamoyillararo integratsiya	15
---	----

Gulruh Bozorova, Maysara Eshniyazova. Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodini o'rganishda interaktiv metodlardan foydalananish..	154
--	-----

S.Yuldasheva, S. Najiyeva. Didaktik jarayonida talabalar ijodkorligini rivojlantirish.....	158
--	-----

Marxabo Xakimova. Tarbiyada qadriyat va ma'naviyatning o'rni va ahamiyati	16
---	----

Sh.Nizamova, Shaxnoza Ibrohimova. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida yozma nutq kamchiliklarini bartaraf etish yo'llari	161
---	-----

Nodira Zikirova. The role of innovative technologies in the development of methodical training of teachers in general secondary educational institutions	164
--	-----

Madina Dalieva. Term and its specific semantic characteristics	167
--	-----

Shaxlo Maxkamova. Approaches and methods of teaching English grammar.....	17
---	----

Фарида Умарова. Методическая разработка на тему «Праздники. Как поздравить с чем-нибудь?»	173
---	-----

TILSHUNOSLIK

Shaxnoza Djurayeva. Axloqiy qadriyatlarni ifodalovchi birlıklar	
---	--

To'lqin Mardihev. O'zbek badiiy asarlarida vatan konseptining lingvomadaniy tahlil	179
--	-----

Baxodir Suyunov. Tashqi tibbiy lakunalar	181
--	-----

Oydin Nurullayeva. Parallel korpuslarda frazeologik birlıklarning ifodalananishi.....	185
---	-----

Sunnat Abdunabiyev. Arab tilshunosligida atamashunoslik.....	187
--	-----

Mahbuba Qobilova. Izohli lug'atlarda sotsial ma'noli leksemalarning semantikasi	191
---	-----

MULOHAZA

Suxrob Saitov. O.Henry ijodi va milliy adabiylar jarayoni.....	
--	--

Saxatmurot Xurramov. Umumiylar o'rta ta'lif maktablarida boshqaruv mahorati muammolari	194
--	-----

KICHIK TADQIQOT

Hulkar Jo'raqulova. Qoraqalpoq va o'zbek tilidagi frazemalarning qiyosiy tahlili	196
--	-----

Muxlisa Sobirova. O'zbek ismlarining sotsialningistik xususiyatlari	
---	--

Safo MATCHONOV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
professori, pedagogika fanlari doktori

YOZUVCHINING BADIY OLAMI: MAHMUD MURODOV PORTREТИГА CHIZGILAR

Odatda biror yozuvchi haqida so'z ketganda , eng yaxshi asarlari va ulardagi yetakchi qahramonlar bilan birga, o'sha yozuvchining ijodkor sifatidagi o'ziga xos ma'naviy, ijodiy olami tilga olinadi. Kichkintoylarning sevimli yozuvchisi, dramaturgi, tarjimon Mahmud Murodov to'g'risida gapirganda bog'cha va maktab yoshidagi kichik bolalarga atalgan ko'plab kitoblari bilan birga adibning bolajonligi esga keladi. Yozuvchi asarlarining kitobxonlar o'ttasida ommalashib ketishining asosiy sabablaridan biri ham bolalarga bo'lgan samimiy muhabbatidir. Aksari hollarda, bevosita bo'lmasa-da, adibning o'zi asarlarining bosh qahramoni sifatida maydonga chiqadi. Bunday vaqtida – u goh nima yaxshi-yu, nima yomonligi ustida tortishayotgan bolalarga birdan-bir to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi amaki, goh biror nojo'ya xatti-harakati sababli xijolat bo'lgan bolaga samimiy maslahat berayotgan mehribon bobo timsolda namoyon bo'ladi. Har qanday holda ham uning maqsadi bitta – kitobxon qalbiga ezgulik urug'ini sepish.

Mahmud Murodovning ijodiy yo'lli boshqa yozuvchilarnidan ancha-muncha farq etadi. "Maktabda o'qib yurganimda, – deb eslaydi yozuvchi, – "Olmazor" mahallasi choyxonasida gazetalar o'qib berardim. "Ko'k ko'ylik" to'garagi tuzib, turli yig'lnlarda konsertlar qo'yib berardik. Marhum Bahrom Rahmonov bilan birlgilikda "Qizil pojar" to'garagi tuzib, "Mergancha" mahallasidagi Akmal Ikromov nomli klubda tomoshalar ko'rsatardim. Keyinchalik institutni bitirguncha Toshkentdag'i 9-, 17-bolalar uyida tarbiyachi bo'lib ishladim. Shu davrda "Vojatiy" jurnalida faol qatnasha boshladim".

Bo'lajak yozuvchining ijodiy faoliyati shu davrdan boshlab matbuot bilan chambarchas bog'lanadi. "1947-yili meni "Lenin uchquni" ("Tong yulduzi") gazetasiga chaqirishdi, – deb yozadi adib tarjimayi holida. – U yerda avval maktab bo'limi mudiri, keyin mas'ul kotib, 1953-yildan beri "G'uncha" jurnalida mas'ul kotib bo'lib ishlab kelmoqdaman".

Bundan yozuvchi ijodiga qanot baxsh etgan omil uning ro'znama va oynoma muharririylaridagi jurnalistik faoliyati ekanligini sezish qiyin emas. Lekin u badiiy mahoratini oshirishda shu bilan cheklanib qolmadidi. Bolalar matbuotidagi xizmati, o'z navbatida, yozuvchi asarlarining mavzu doirasini ham belgilab berdi. Bu haqda u quyidagilarni qayd etadi: "Yozadigan narsalarim ko'proq tartib-intizom, Vatanga muhabbat, to'g'rilik, yaxshi o'qish, tabiatni sevish, do'stlik, mehnatsevarlik, sodiq o'rtoqlik, go'zallikni sevish, hayvonu qushlarga g'amxo'rlik, kattalarni hurmat qilish hislarini uyg'otish, davlat mulkini saqlash, ota-onalarga mehr, dovyuraklik haqida bo'ladi".

Mahmud Murodov kitoblari soni jihatidan maqtovga loyiq emas. "Yaxshi amaki", "Sirli don", "Eng maza joy", "Ko'prik", "Kim eng kuchli", "Sanoq", "Bog'cha bola", "Kichik doctor"... Lekin qator ertak va hikoyalari o'z to'plamlaridan tashqari boshlang'ich sinflar darsliklari orqali kichik kitobxonlar qalbidan chuqur joy olgan. Darhaqiqat, adib asarlarining o'ziga xos xususiyati kitobxonlarining yosh xususiyatlari, ruhiy olami, hayotiy tushunchasi bilan bog'liq. Yozuvchining ko'pgina asarlari shaklining ixchamligi, sujetining qiziqarli voqealar asosiga qurilganligi, tasvir uslubining soddaligi bilan ajralib turadi. Adib ularda kichkintoylar hayotidan olingan oddiy voqealar tasviridan umumlashma xulosalar chiqarishga, shu orqali kitobxonni rang-barang olam va insoniy munosabatlar bilan tanishtirishga, tarbiyaviy jihatdan muhim bir g'oyani ilgari surishga intiladi.

"Kimning oyisi zo'r?" hikoyasi sujeti Karimjon, Olimjon va Bahodir degan bolalar o'ttasida bo'lib o'tgan bahs asosiga qurilgan. Bahs ular uchun o'zin, shu bilan birga, o'zlarini qiziqtirgan jumboqlarning mag'zini chaqish vositasi. Yozuvchi mazkur hikoyada bahs-o'zin tasviri orqali o'quvchi diqqatini insoniylik masalasiga qaratadi.

Bahsning bosh sababchisi – Bahodir degan bola. Olimjon uni davolab oyoqqa turg'izgani uchun onasini dunyoda eng zo'r insonlardan biri, deb maqtanadi. Bunga Karimjonning ham bo'sh kelgisi yo'q. Chunki Olimjonning onasi davolovchi vrach bo'lsa, uning onasi dori tayyorlovchi – farmasevt. Karimjonning tushunishicha, agar farmasevtlar dori tayyorlamasa, bemorlarni, jumladan, Bahodirni davolash haqida gap ham bo'lmas edi. Bahodirning nazarida esa, ulardan har ikkalasining gapida ham jon bir. Ammo bular hali kimning onasi eng hurmatga loyiqligi haqidagi bahsga to'la javob bo'lolmaydi. Bahodir otasining gaplaridan odamlarga gazlama to'qib bergani uchun o'z onasini ham, albatta, hurmatga sazovor, degan qat'iy xulosaga keladi. Kitobxon xulosasi bunga nisbatan yanada kengroq. U turli sohalarda ishlaydigan kishilar mehnati odamlar farovonligiga qaratilishi, shu tufayli mehnat – shon-sharaf ishi ekanligi, boshqacha aytganda, "odamiy ersang demagil odami, onikim yo'q xalq g'amidin g'ami" (Navoiy) haqida jo'n tarzda bo'lsa-da, tasavvur hosil qiladi.

Muallifning kichik kitobxon bilan nihoyatda muhim masala xususida kuyunchaklik bilan gaplashayotgandek o'zini erkin tutishi o'quvchida asar voqealariga ishonch va qiziqish tug'diradi. Bu esa yozuvchining jiddiy muammolarni

ham o'quvchilar yoshiga mos, ishonarli yo'sinda ifodalash mahoratini ko'rsatadi.

Ma'lumki, bolalarga bag'ishlangan asarlar kattalar adabiyotidan o'quvchilar yosh xususiyatlarining alohida hisobga olinishi bilan ajralib turadi. Masalan, bog'cha yoshidagi bolalalar asarlari bilan o'rta yoxud katta yoshdagi bolalar va o'smirlar asarlari, garchi bir xil yuksak badiiy talablar asosida yaratilsa-da, shakli, ifoda uslubi, sujet qurilishi va kompozitsion tuzilishiga ko'ra farqlanadi. Aslida chinakam san'at namunasi bo'lgan bolalar asarlarni kattalarning o'qib, zavq olishi, ammo kattalarga mo'ljallangan asarlarni bolalar o'qiy olmasligini nazarda tutib, ma'lum ma'noda kattalar adabiyotini cheklangan, deyish mumkin.

Kichkintoylarga bag'ishlangan badiiy asarlar tili, ifoda uslubi, sujet qurilishi, kompozitsion tuzilishi jihatidan farqlansa-da, tarbiyaviy maqsadga qaratilishi jihatidan mushtaraklikka ega. Mahmud Murodovning "Bog'cha bola", "Kaska", "Baxtini topgan Bahriniso", "Kim eng yaxshi?", "Salom, Quyosh bobo!", "Jonli surat" kabi qator hikoya va ertaklarida tarbiyaviy g'oya bolalarga tanish hayot materiallari orqali ifoda etiladi.

"Bog'cha bola" hikoyasi bolalarning kundalik hayotidan olib yozilgan. Asar qahramoni Shukurjon kitobxonga na mustaqil yuvinish, na kiyinish va na ovqatlanishni bilmaydigan bola sifatida tanishtiriladi. Adib hikoyada jajji qahramonning bog'chaga borgandan keyin odatdag'i turmush tarzining o'zgarishi holatlarini qalamga oladi, uning hayotga munosabatidan tarbiyaviy xulosa chiqaradi. Tabiiyki, uy sharoitiga o'rgangan bola bog'chada – jamoa ichida ancha qiyinchiliklarga duch keladi. Yozuvchi qiyinchiliklar tasviriga batafsil to'xtalib o'tirmasdan, ularning qahramonga ta'sirini bir-ikki ishorada berishga muvaffaq bo'lgan. Zero, ko'p so'zlilikning har qanday turi bolalar asarining tabiatiga ziddir. Muhimi shundaki, adib qahramon fe'l-atvorining o'zgarishiga asos bo'ladigan holat yarata olgan. Bu, bog'chadagi o'rtoqlarining Shukurjonnini o'z-o'ziga qaray olmaslikda mazax qilishidir. O'rtoqlari uning ustidan noo'rin kulganlarida Shukurjonnning o'chakishi hech gap emas edi. Ammo u bog'cha opasining g'amxo'rlik bilan qilgan muomalasidan o'rtoqlarining tanbehi to'g'riligini, o'zining nohaqligini tushunib yetadi.

Mahmud Murodov hikoyalarining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri – nima yaxshi-yu nima yomonligi "ko'rgazmali" tarzda, ya'ni biror e'tiborli voqeа misolida aks ettirilishidir. Yozuvchi "ko'rgazma" uchun qahramonlar hayotiga oid murakkab ziddiyatlar to'qib o'tirmaydi. Aksincha, hammaga tushunarli oddiy voqealar tasviridan muhim tarbiyaviy ma'no keltirib chiqaradi. Shu xildagi asarlaridan "Dog", "Xop bo'ladi", "Velosiped" hikoyalari sujeti qahramonlarning o'z-o'zini fosh qilish voqealari asosiga qurilgan .

"Dog" hikoyasida Anvarjon degan bola qo'lini yuvmasdan dasturxonga artish bilan irkitligini, "Xop bo'ladi" hikoyasida Usmonjon degan bola akasi bilan suhbat chog'ida odobsizligini, "Velosiped" hikoyasida ko'cha-ko'yda hech kimni mensimaydigan bola bobosiga humatsizlik ko'rsatib, manmanligini fosh etadilar. Ayrim bolalar xulq-atvoriidagi illatlar tanqidiga qaratilgan "Ikki xil yordam", "U bilan o'ynamayman" hikoyalarining fosh qiluvchi ruhi yanada keskin. Adib ularda kichik qahramonlar xatti-harakatlardagi yaxshi va yomon tomonlarini taqqoslab ko'rsatish yo'lidan boradi. Shunisi muhimki, o'sha jarayonda kitobxon qahramonlardan qaysi birining xatti-harakati to'g'ri-yu, qaysisiniki noto'g'riligini ortiqcha izohlarsiz tushunib yetadi.

"Har xil yordam"da tasvirlanishicha, ko'chada ketayotgan ikki o'rtoqning biri yo'lovchi ayolga to'r xaltasidan kartoshkasi tushganini aytib, o'tib ketadi. Ikkinchisi esa hech narsa demasdan kartoshkani yerdan olib, ayolning to'r xaltasiga solib qo'yadi. Yozuvchi shu tarzda ikki o'rtoqning xatti-harakatini kishi bilmas bir-biriga solishtirar ekan, ulardan qaysi birini ma'qullahni o'quvchining o'ziga havola etadi. Mazkur asarlar kichik yoshdagi bolalar nasrining eng yaxshi namunalaridan bo'lib qolishiga shubha yo'q. Ularning maktabgacha ta'lim dasturlari va boshlang'ich sinf darsliklaridan mustahkam o'rin olib kelayotgani bejiz emas. Adib o'z qahramonlarining xatti-harakatlari, fe'l-atvori haqida so'z yuritganda masalaga g'amxo'r tarbiyachi, mehribon ustoz sifatida yondashadi. Kitobxonlarga o'zidagi eng yaxshi xislatlarni singdirishga harakat qiladi. Kitoblaridan birini "Yaxshi amaki" deb nomlashi ham, ehtimol, shu tufaylidir.

Kichik yoshdagi bolalar uchun asar yaratish nihoyatda mas'uliyatlidir. Qaysi yozuvchi o'z zimmasidagi mas'uliyatni sezgan holda qo'lga qalam tutsa, uning asari umum manfaati yo'luda xizmat qilaverishiga bolalarning sevimli yozuvchisi Mahmud Murodovning ijodi yorqin misol bo'la oladi. Uning asarlari faqat bugungi kun uchun emas, balki kelajakka xizmat etishi bilan ham alohida e'tiborga loyiq.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Matchonov S. Bolalar adabiyotidan saboqlar. – Toshkent: Mahalla va Oila, 2022.
2. O'zbek bolalar adabiyoti va adabiy jarayon. – Toshkent: Fan, 1989.
3. O'zbek bolalar adabiyoti antologiyasi. – Toshkent: Cho'lon nashriyoti, 2017.